



**YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA OILAVIY TARBIYA
QADRIYATLARINING O'ZGARISHI**

Abduraimova Hulkaroy Muzaffar qizi

Nigora Yo'ldasheva Sodiqjon qizi

*Alfraganus Universiteti, Pedagogika fakulteti, Psixologiya
(faoliyat turlari) yo'nalishi 2-bosqich talabalari*

Zamira Bilolova Baxtiyarovna

Ilmiy rahbar: "Alfraganus Universiteti"

Pedagogika fakulteti, Psixologiya fanlari doktori, Phd

Annotatsiya: *Ushbu maqolada yangi o'zbekiston sharoitida ijtimoiy va iqtisodiy o'zgarishlar natijasida oilaviy qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishi tahlil qilingan. An'anaviy va zamonaviy qadriyatlar natijasida farzand tarbiyasini o'zgarishi haqida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Oila, oila qadriyatlari, an'anaviy qadriyatlar, zamonaviy qadriyatlar, gender tengligi, "Ayollar daftari" "Temir daftar", mehnat migratsiyasi, Shavkat Mirziyoyev, Islom Abdug'aniyevich Karimov.*

Hozirgi kunda jamiyatning barcha sohalarida, jumladan, ijtimoiy hayotda ham sezilarli o'zgarishlar yuz bermoqda. Shubxasiz bu o'zgarishlar oilaviy qadriyatlarning shakllanishi va rivojlanishiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatib kelmoqda. Oilaning ijtimoiy institut sifatidagi roli kuchayib, milliy qadriyatlar, an'analar va zamonaviy qarashlar uyg'unlashib bormoqda.

Oila qadriyatlari – bu avloddan avlodga o'tuvchi axloqiy, ijtimoiy, diniy va ma'naviy qarashlar majmuasi hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston sharoitida bu qadriyatlar ikki yo'nalishda shakllanib bormoqda:

Bulardan biri an'anaviy qadriyatlarbo'lib ularga hurmat, sadoqat, kattalarga ehtirom, farzand tarbiyasiga mas'uliyat kabilari kiradi.

Keyingisi esa zamonaviy qadriyatlar bo'lib, bunga shaxsiy erkinlik, gender tengligi, iqtisodiy mustaqillik, hamkorlikka asoslangan oila modeli kabilarni kiritish mumkin.

Bu ikki yondashuv uyg'unlashsagina, oila mustahkamligi va ichki muvozanatni saqlash imkoniyati ortadi. Ammo bu jarayon muammolarsiz kechmaydi: ayrim hollarda qadriyatlar to'qnashuvi, oilaviy nizolar va ijtimoiy moslashuv qiyinchiliklari ham kuzatilishi mumkin.

Yangi O'zbekiston – bu tub islohotlar, ochiqlik, adolat tamoyillariga asoslangan taraqqiyot yo'lini tanlagan davlatdir. Ushbu islohotlar nafaqat siyosiy va iqtisodiy tizimlarni, balki ijtimoiy hayot tarzini shuningdek oilaviy qadriyatlar tizimini ham sezilarli darajada o'zgartirmoqda.

Yangi O'zbekistondagi ijtimoiy o'zgarishlar ya'ni amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar, ochiqlik siyosati hamda jamiyatning shakllanishi oila funksiyalarini





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATION G'OYALAR



o'zgartirmoqda. Masalan: Ayollar faolligining ortishi ya'ni gender tengligiga oid siyosatlar, yoshlarga bo'lgan e'tibor oilaviy rollarga hamda oiladagi mas'uliyatlar taqsimotiga o'z tasirini ko'rsatadi.

Ommaviy axborot vositalarining ta'siri natijasida an'anaviy oilaviy qadriyatlar chetlanib, zamonaviy qarashlarga intilish kuchayib ketyapti.

Oilaviy qadriyatlarning shakllanishiga eng ko'p ta'sirini o'tkazuvchi omillarga quyidagilarni misol qilib keltirish mumkin.

Avvalo ijtimoiy omillar; bularga davlat siyosati, ta'lim tizimi, diniy muhit, ommaviy axborot vositalari kiradi.

Keyingisi psixologik omillar hisoblanadi, bularga shaxsiy motivatsiya, hissiy barqarorlik, shaxslararo munosabatlarni kiritish mumkin.

Oilaviy qadriyatlarni shakllantiruvchi omillarni navbatdagisi sifatida madaniy omillarni; milliy urf-odatlar, an'analar, diniy e'tiqodlarni kiritish mumkin.

Yangi O'zbekistonda **"Ma'naviyatli avlod – mustahkam oila"** tamoyili asosida turli ijtimoiy loyihalar tufayli oilaviy qadriyatlarni rivojlantirish amalga oshirilmoqda. Yosh oilalar o'rtasida o'zaro hurmat, mas'uliyat, mehr-oqibat, sog'lom turmush tarzi kabi qadriyatlar muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim va tarbiya jarayonida oilaviy qadriyatlarni mustahkamlashga qaratilgan dasturlarni ko'proq ishlab chiqish zarur.

Bugungi kunda oila faqatgina ijtimoiy birlik emas, balki iqtisodiy va ma'naviy barqarorlikning asosiy poydevoriga aylangan.

So'nggi yillarda iqtisodiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar ya'ni tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlanayotgani, xorijiy investitsiyalarni jalb etilayotgani hamda raqamli iqtisodiyotni joriy etilayotgani aholi daromadlarining o'sishi natijasida oilalarning farovonligiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday o'zgarishlar esa oilaviy qadriyatlarni o'z o'zidan o'zgartirib yuborishi natijasida ularning shakllanish jarayoniga kuchli turtki bo'lib kelmoqda. Ayniqsa, mehnat migratsiyasi, ayollar va yoshlarning iqtisodiy faolligini oshirish borasidagi siyosat oila ichidagi rollarning qayta taqsimlanishiga olib kelmoqda. Erkaklar bilan bir qatorda ayollarning ham iqtisodiy faol bo'lishi ularning oila qarorlarida faol ishtirok etishiga zamin yaratmoqda.

Biz bilamizki O'zbekistonda oila institutini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, "Oila va xotin-qizlar qo'mitasi", "Har bir oila – tadbirkor", "Yoshlar – kelajagimiz", "Ayollar daftari", "Temir daftar" kabi loyihalar orqali oilalarning iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan mustahkamlanishiga erishib kelinmoqda. Yurtimizda faoliyat olib borayotgan bu siyosatlar natijasida:

Ayollar ish bilan bandligi ortmoqda;

Yoshlar o'z biznesini yo'lga qo'yimoqda;

Ijtimoiy yordamga muhtoj oilalarga ko'mak ko'rsatilyapti.

Bularning bari oilaviy qadriyatlarni o'zgarishiga o'z tasirini ko'rsatmoqda.

Shunday qilib yangi O'zbekiston sharoitida iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar oilaviy qadriyatlarning yangicha asosda shakllanishiga bevosita ta'sir qiladi va bu borasida



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning bir qator nutqlari va qarorlarida oilaning jamiyatdagi o'rnini, uni mustahkamlash zarurati, hamda yoshlar tarbiyasida qadriyatlarning roli alohida ta'kidlab o'tilgan. Quyida ushbu masalaga oid Prezident fikrlaridan ayrim muhim jihatlarni keltiraman:

Prezident Shavkat Mirziyoyev; *“Oilani mustahkamlash, undagi mehr-oqibat, o‘zaro hurmat, sabr-toqat, halollik kabi qadriyatlarni saqlab qolish va rivojlantirish – bu jamiyatimizning barqarorligi va taraqqiyotining asosi hisoblanadi.”* deya 2022-yildagi *“oilada xotin-qizlar masalalari bo'yicha”* yig'ilishda so'zlab o'tganlar.

Oilaga, farzandga bo'lgan munosabatlarga e'tibor berish tufayligina qadriyatlarimizni asrab qolishimiz mumkin. Oilada bolani tarbiyasi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bolani tarbiyasida, muhim qadriyatlaridan hisoblangan ertak, rivoyat va hadislardan foydalanish va ularga qiziqitira olish muhim omillardan biri hisoblaniladi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti **I.A.Karimov** ta'kidlaganidek,

"Oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i" ekanligini tan olishimiz darkor.

Bola tug'ilgan kundan boshlab oila muhitida yashaydi. Oilaga xos an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar bolani shakllantiradi. Bolaning chiroyli tarbiyasi oiladagi chiroyli muhitdan darak beradi. Tarbiyasi chiroyli bo'lgan inson hech qayerda hech qachon qadsiz bo'lmaydi.

Xulosa qilib aytganda, oilada qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar bola tarbiyasida muhim o'rin tutadi. Bolani tarbiyalash orqali mehr-muhabbat tuyg'ulari juda go'zal shakllangan barkamol inson voyaga yetadi. Oiladagi qadriyat an'analar bizgacha yetib keldimi, endi uni biz farzandlarimizga tushuntirish, singdirish orqali kelajak avlodga yetib borishini ta'minlashimiz zarur. Qadriyatlarimiz ortidagi tarbiyada va urf-odatlarimizda yaxshilik hamda ezgulik yotadi. Ularda faqat odamiylik rivojlanadi. Urf-odatlar asnosida tarbiyalangan bola ma'naviyati boy, xulqi go'zal inson bo'lib kamol topadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch, Toshkent: Ma'naviyat. 2008.
2. ILOYEV M. "Oila, ijod, tarbiya va ma'naviyat". T., "Sharq" 2000.
3. G'ulomov S.S. Zamonaviy O'zbekiston jamiyatida ma'naviy qadriyatlar va ularning shakllanishi – T.: Ma'naviyat, 2022.
4. Usmonova D.M. An'anaviy va zamonaviy qadriyatlar uyg'unligi: ijtimoiy-psixologik tahlil // "Ijtimoiy fanlar" jurnali, 2022,
5. To'xtayeva N. Oilaviy qadriyatlar va farzand tarbiyasining psixologik asoslari – T.: "Fan va texnologiya", 2020.
6. Surayyo Burhanovna Sharipova- Oilada yoshlar umummadaniy dunyoqarashini shakllantirish mazmuni. 2021.
7. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi – T.: O'zbekiston, 2021.